

# 10-SINF. O‘ZBEKISTON TARIXI.

I chorak BSB (bob bo‘yicha summativ baholash) mavzulari va topshiriqlari.

|                   |  |                                                                                                                         | O‘tkazilish muddati                   | Ball    |  |         |  |
|-------------------|--|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------|---------|--|---------|--|
| 1-BSB             |  |                                                                                                                         |                                       |         |  |         |  |
| No                |  | Mavzular                                                                                                                |                                       |         |  |         |  |
| 1.                |  | Kirish                                                                                                                  | 21-26.10. 2024-yil (1 hafta davomida) | 25 ball |  |         |  |
|                   |  | Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklaridagi ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy ahvol |                                       |         |  |         |  |
| 2.                |  | Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga yurishi va Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi                    |                                       |         |  |         |  |
| 3.                |  | Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylanishi                                              |                                       |         |  |         |  |
| 4.                |  | Turkiston o‘lkasida siyosiy-ma’muriy boshqaruv tizimi                                                                   |                                       |         |  |         |  |
| 5.                |  | Turkistonda Rossiya imperiyasiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari                                                      |                                       |         |  |         |  |
|                   |  | Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta’siri                                                      |                                       |         |  |         |  |
|                   |  | Turkistonda 1916-yilgi qo‘zg‘olonning boshlanishi                                                                       |                                       |         |  |         |  |
| Formativ baholash |  |                                                                                                                         |                                       |         |  | 10 ball |  |
| Jami ball         |  |                                                                                                                         |                                       |         |  |         |  |

**BSB-1.**

**F.I.SH.**

**1-topshiriq. 1875-yil 22-sentyabrda Nasriddinbek va Kaufman o'rtasida imzolangan shartnoma shartlari va uning oqibati haqida ma'lumot bering. Maksimal 5 ball.**

This image shows a blank sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and extend across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

**2-topshiriq. Jadvalda tarixiy voqealar va uning natijalari berilgan. Agar tarixiy voqealik va natija bir-biriga mos tushsa “+” belgisini, mos tushmasa “–” belgisini qo‘ying. Maksimal 5 ball.**

| <b>№</b> | <b>Voqealar</b>                                                                                                  | <b>Natija</b>                                                                                                                   | <b>To'g'ri javob</b> |
|----------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|
| 1        | 1865-yil aprel oyi oxirida M. Chernyayev Chirchiq daryosining chap sohilida joylashgan Niyozbek qal'asiga keldi. | Oqmasjid qal'siga yurish boshlandi                                                                                              |                      |
| 2        | O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishining birinchi bosqichi amalga oshirildi.              | Turkiston viloyati tashkil etildi                                                                                               |                      |
| 3        | 1886-yil Aleksandr III tomonidan yangi «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» tasdiqlandi.              | Turkiston generalgubernatorligining ma'muriy boshqaruvi yangi idora – Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to'ldirildi. |                      |

|   |                                                                                                                                  |                                                                                            |  |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| 4 | <i>Buxoro bilan Rossiya imperiyasi 1873-yilda amirlikka o'z vakilini tayinlash huquqini beruvchi yangi shartnomani imzoladi.</i> | <i>Kaufman Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakili etib tayinlandi.</i> |  |
| 5 | <i>1877-yilda Toshkentda «Shahar nizomi» joriy etildi.</i>                                                                       | <i>Dumada shaharning mahalliy aholisidan 21 nafar deputat qatnashgan.</i>                  |  |

**3-topshiriq. Matnda 5 ta gap berilgan. Undan foydalangan holda 1898-yilgi va 1916-yilgi qo'zg'olonlarga oid ma'lumotlarni guruhlariga ajrating (har bir to'g'ri ma'lumot uchun 1 balldan qo'yiladi). Maksimal 5 ball.**

Bu qo'zg'olon mahalliy aholi o'rtasida mardikorlikka olishga qarshi olib borilgan ommaviy chiqishlar edi.

Qo'zg'olonga Dukchi eshon (Muhammad Ali), Ziyovuddin maxsum kabi shaxslar rahbarlik qildi.

Jizzaxdagi norozilik boshqa shaharlarga, jumladan, Toshkent, Samarqand va ko'plab atrofdagi qishloqlarga yoyildi.

Samarqandning Urgut qishlog'ida, keyinchalik, Siyob, Mahalla, Xo'ja Ahror, Angorda, va Dahbedda norozilik chiqishlari bo'lib o'tdi.

General-gubernator N. Korolkov qo'zg'olonchilarni batamom yo'q qilishga qaratilgan jazo ekspeditsiyasiga shaxsan rahbarlik qildi.

| 1898-yilgi qo'zg'olon | 1916-yilgi qo'zg'olon |
|-----------------------|-----------------------|
|                       |                       |
|                       |                       |
|                       |                       |

**4-topshiriq. XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan quyidagi lavozimlarni izohlang. Maksimal 5 ball.**

| №  | Atamalar           | Mazmuni |
|----|--------------------|---------|
| 1. | <i>Amirlashkar</i> |         |
| 2. | <i>Mingboshi</i>   |         |
| 3. | <i>Mehtar</i>      |         |
| 4. | <i>Qozikalon</i>   |         |
| 5. | <i>Mirshab</i>     |         |

**5-topshiriq. Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining 12 ta darvozasi bo'lgan. Ushbu darvozalardan 5 tasining nomini yozing. Maksimal 5 ball.**

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_
4. \_\_\_\_\_
5. \_\_\_\_\_